


filologiya fanlari doktori, professor
Hamid G'ulomovich Ne'matov
tavalludining 80 yilligiga bag'ishlanadi



FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

MATERIALLARI



2021-yil 22-noyabr

Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L Publishing group

str. A.Russo 15, of. 61, Chisinau-2068, Republic of Moldova Europe

Printed at: see last page

ISBN: 978-620-0-62760-5

Copyright © Guli Tairova

Copyright © 2021 Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L Publishing group

FOR AUTHOR USE ONLY

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH DEPARTAMENTI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI
BUXORO VILOYATI PEDAGOG XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISH
VA QAYTA TAYYORLASH INSTITUTI**

**“FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM”
mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman
materiallari**

(filologiya fanlari doktori, professor Hamid G‘ulomovich Ne’matov
tavalludining 80 yilligiga bag`ishlanadi)

**«ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ПРОБЛЕМА И
РЕШЕНИЕ»**

материалы международной научной конференции
(доктор филологических наук, профессор Хамид Гуломович
Нематов
посвящается к 80-летию со дня рождения)

**“PHILOLOGICAL RESEARCH: PROBLEM AND SOLUTION”
international scientific conference**

(doctor of Philology, Professor Hamid Gulomovich Nematov
dedicated to the 80th birthday anniversary)

Buxoro – 22-noyabr, 2021-yil

Anjuman O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 16-iyundagi olyi ta’lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi, “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi hamda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlariga muvofiq tashkil etilmoqda.

Anjumanning maqsadi: filologiya fanlari doktori, professor Hamid G‘ulomovich Ne’matov tavalludining 80 yilligini keng nishonlash va o‘zbek tilshunosligi XXI asr birinchi choragida, filologiyada o‘z yechimini kutayotgan dolzarb masalalar, til ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o‘zbek va xorijiy tillarni qiyosiy o‘rganish masalalarini ta’limning yetakchi mutaxassislar bilan tajriba almashish hamda ushbu sohadagi so‘nggi tadqiqot usullarini ommalashtirishdan iborat.

DASTURIY QO‘MITA

Xamidov O. X. –BuxDU rektori, i. f. doktori, professor, rais;

Qahhorov O.S. – BuxDU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, i.f.doktori, rais o‘rinbosari;

Jamoliddinova O. – Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim vazirligi maslahatchisi, a’zo;

Jumayev R.G‘. – BuxDU o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori, i.f.doktori (PhD), dotsent, a’zo;

Qahhorov S.Q. – BuxDU kasaba uyushmasi raisi, p.f.doktori, professor, a’zo;

Rajabov D.Z. – BuxDU filologiya fakulteti dekani, f.f.doktori (DSc), dotsent, a’zo;

O‘rayeva D.S. – BuxDU filologiya fakulteti professori, f.f.doktori, a’zo;

Abuzalova M.Q.– BuxDU filologiya fakulteti professori, f.f.doktori, a’zo;

Axmedov A.R. – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri, f.f.nomzodi, dotsent, a’zo;

Eshonqulov H.P.–BuxDU o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, f.f.doktori, dotsent, a’zo;

Yuldasheva D.N. – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori, p.f.nmzodi, a’zo;

Nazarova S.A. – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.nomzodi, a’zo.

Toirova G.I. – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.f.doktori (PhD), a’zo;

TASHKILIY QO`MITA

Axmedov A.R. – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri, f.f.nomzodi, dotsent, rais;

Toirova G.I. – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.f.doktori (PhD), rais o‘rinbosari;

Safarov A.K.– Buxoro viloyati PXMOQTI rektori, p.f.nomzodi, dotsent, a’zo;

Mengliyev B.R.–Toshkent DO‘TAU professori, f.f.doktori, a’zo;

Ne’matova G.H. –Buxoro viloyati PXMOQTI prorektori, f.f.nomzodi, dotsent, a’zo;

Hamroyeva Sh.M.–Toshkent DO‘TAU doktoranti, f.f.doktori (DSc), dotsent, a’zo;

Qilichev B.E.– BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.nomzodi, a’zo;

Ne’matova L.H. –BuxDU rus tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.nomzodi, dotsent, a’zo;

Asadov T.H. – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.nomzodi, a’zo;

Hojiyeva M.Y.– BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi, a’zo.

Yoqubova Sh. - BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi, a’zo.

Mas’ul muharrir:

Axmedov A.R. – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Abuzalova M.Q. – filologiya fanlari doktori, professor

Yuldasheva D.N. – pedagogika fanlari nomzodi, professor

Toirova G.I. – f.f.f.doktori (PhD), dotsent

бадий матн рухини, моҳиятини очишда бебаҳо манбадир. Тийрак талқинчи асар орқали ёзувчи ҳолати ҳақида кўп нарсаларни сўзлаб беради” [10, 19].

2. Муаллиф қаҳрамон. Бадий асарда қайси давр ва минтақада содир бўлган воқеаларни тасвирланадиганликдан қатъи назар унда муаллиф ҳам ўз нуқтаи назари билан иштирок этади. Аниқроғи, муаллифнинг ўзи ҳам қайсири маънода асардаги муҳим образлардан бири ҳисобланишини исботлайди.

3. Тарихийлик. Биографик метод орқали бадий асарни ўрганиш натижалари шуни кўрсатдики, муаллиф тарихий мавзуга қанчалик бадий тўқима унсурларини қўлламасин, бунда асл ҳақиқатни бутунлай ўзгартира олмайди. Сабаби муаллифнинг биографияси ҳам асар ғояси билан боғлиқ бўлади.

4. Ҳақиқат. Биографик методнинг энг муҳим жиҳатларидан бири – унда муаллифнинг “ёлғон сўзлолмаслиги”дир. Бунга сабаб қилиб шуни таъкидлаш мумкинки, ёзувчи асардаги ҳиссиётни китобхондан олдин ҳис қиласи, сюжет чизиқлари ва воқеалар ривожини ҳаммадан олдин билади. Шу сабабдан ҳам у на ўзини, на ўкувчисини алдай олади. Чунки “Адабиётшунослик методларидан ҳеч бири аслида универсал эмас. Бироқ улар орасида биографик метод мазмун-моҳиятида инсон шахсияти турганлиги билан кишилик тафаккури орқали шакллантирилган барча фанларга оид билимларга, мавжуд оқимлар ва қарашларга таяниб иш кўрадики, шу жиҳатига кўра, у маълум маънода универсиаллик касб этади ва ўзига хос яхлит тизим шаклида намоён бўлади”[13, 12]. Биз ҳам шу фикрни маъкуллаймиз.

Адабиётлар:

1. Тимофеев Л.И., Тураев С.В. Словарь литературоведческих терминов. – М: Просвещение , 1974. – Ст. 137.
2. Литературный энциклопедический словарь. – М., 1987. Ст.154.
3. Борев Ю.Б. Искусство интерпретации и оценки: Опыт прочтения «Медного всадника». –М., 1981. –С. 156.
4. Жеребило Т.В. Методы исследования в филологии: Словарь-справочник. – Назрань: Пилигрим», 2013. – С.41.
5. Жон Голсуорси. Адабиётда характер яратиш. Жаҳон адилари адабиёт ҳақида. – Т.: Маънавият. 2010. – Б. 95.
6. Ражабова Ж. “Бобурнома”да қаҳрамон портрети ва руҳий ҳолат ифодаси. Ўзбек тилини ва адабиёти. – Т.: Фан. №2 , 2010. – Б. 128
7. Карим Баҳодир. Биографик метод. / Руҳият алифбоси. – Т., 2016. – Б.175.
8. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: 2008. – Б.125.
9. Қодирий Ҳ. Отам ҳақида. – Т., 1983. – Б. 113
10. Расулов А.Р. Ҳозирги ўзбек танқидчилигига таҳлил ва талқин муаммоси: филол. фанлари доктори ... дисс. автореф. – Т., 2002. – Б.68.
11. Йўлдошев Б. Ўзбек адабиётшунослиги ва адабий танқидчилигига тарихий-биографик метод / Ўзбек адабиётшунослиги ва адабий танқидчилигига услугуб ва маҳорат муаммолари (60-70-йиллар): филол. фан. доктори... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – Б. 42.
12. Орипов А. Эҳтиёж фарзанди. – Т., 1988. – Б. 168
13. Адизова О. И. Адабиётшунос Азиз Қаюмов тадқиқотларида биографик методнинг ўрни: филол. фан. номзоди... дисс. автореферати. – Қарши, 2018.

**AYRIM TOPONIMLARNING TARKIBI VA SEMANTIKASI HAQIDA
DOI: 10.53885/edinres.2021.92.46.025**

Bayramali Kilichev

BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasи
dotserni.

Intizora Axmatova

BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasи

Annotatsiya. *Topononimshunoslik tilshunoslik fanining onomastika sohasida alohida bo‘limdir. Uning tadqiq manbayi toponim bo‘lib, u turli yo‘nalishda joy nomalarini o‘rganadi. Toponim xalqning tarixi, shakllanishi, an’ana va qadriyatları, urf-odatlari, turmush-tarzi, e’tiqodiy dunyoqarashini namoyon etadi. Buxoro viloyati Jondor tumani hududida qo‘llanadigan ayrim toponimlar misolida o‘zbek toponimiyasining lingvogeografik, etnolingvistik, lingvokulturologik, xususiyatlarni ko‘rsatish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *toponim, semantika, onomastika, xalq tarixi*

O‘zbek toponimshunosligining nazariy asoslarini yaratishda T.Nafasovning Qashqadaryo viloyati toponimlari, T.Rahmatovning Samarcand toponimi etimologiyasi, L.Karimovaning o‘zbek tilida toponimlarning o‘rganilishi, S.Nayimovning Buxoro viloyati oykonimlarining nazariy masalalarga bag‘ishlangan, shuningdek, N.Oxunov, N.Uluqovlarning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Toponimika onomastikaning bir sohasi sifatida uning tarkibiga kiruvchi yo‘nalishlardan ayrim o‘ziga xosliklarga egaligi bilan ajralib turadi. Avvalo, toponimika qamrovida geografik birliklar o‘rganiladi, qolaversa, ushbu birliklar o‘ziga xos yasalish xususiyatlariga va semantikasiga ega. Toponimlar ijtimoiy talab, kundalik ehtiyoj natijasi sifatida yuzaga keladi. Bunda biror geografik obyektgä nom berish ehtiyoji, obyektning tarixi, aholining etnik qatlami, kasb-kori, joyning relyefi, biror yirik obyektgä yaqinligi kabi jihatlaridan kelib chiqib nom beriladi. Shu bilan birga, kelishish yoki tasodifiylik asosida paydo bo‘lgan nom qisqa yoki uzoq muddat obyektni nomlash (shu turdag'i boshqa obyektdan farqlash)ga xizmat qiladi [7].

Biz ushbu axborotda Buxoro viloyati Jondor tumani hududida mavjud ayrim toponimlarni tahlilga tortamiz.

Denov. Denov mahalla fuqarolar yig‘ini hamda aholi punkti nomi O‘zbekistonning deyarli barcha joylarida uchraydigan nom. Ushbu nom negizidagi “deh” so‘zi asli qadimiy forsiy “dah” – o‘lka, viloyat, yurt so‘ziga borib taqaladi va toponimlar tarkibida deh, de, di, deg, dek, dev, dey shakllarida uchraydi. De, Deh, Denav, Dehcha, Dihiosiyo, Debalo, Dekmaron, Deybolo, Decha va boshqalar [1, B.25]. Demak, deh – qishloq va nav – yangi, ya’ni yangi qishloq degan ma’noni anglatadi. Boshqa qishloqlarga nisbatan yangi (yaqinda, keying davrda) qurilgan qishloq ma’nosini beradi. Denavning yangiligi unga asos solingan davrda, unga nom qo‘yilayotgan paytga tegishlidir. Hozirda esa u tarixiy toponimlar sirasiga kiradi [2]. Yonidagi shaharcha, qishloqdan keyin, so‘nggi davrda qurilgani uchun shu nom bilan atalgan [5;90].

Aytish lozimki, kundalik turmushning barcha jabbalarida bo‘lganidek, nom berish ham insonlarning ma’lum ehtiyojlari natijasi o‘laroq maydonga keladi.

Jo‘yzar. Xumdonak mahalla fuqarolari yig‘ini hududida joylashgan Jo‘yzar toponimi ikki qismidan: jo‘y+zardan iboratdir. Jo‘y so‘zi “ariq”, “anhor” so‘zlarini ifodalasa, zar so‘zi esa aslida “zard”, ya’ni “sariq” degan ma’noni anglatadi. Demak, Jo‘yzar(d) – sariq rangli suv arig‘i, loyqa suvli ariq degan ma’noni ifodalaydi.

T.Nafasov ham bu toponim tarkibidagi birlinchi komponentga to‘xtalib – jo‘y so‘zi “ariq”, “kanal”, “soy”, “kichik daryo”, “sug‘orish kanali”, “irmoq” kabi ma’nolarni bildirishini qayd etgan [5;115].

Nom biror geografik obyektni, manzilni shunchaki atash vositasi bo‘lib qolmay, balki ularni bir-biridan farqlash vazifasini ham bajaradi. Toponimik birliklarda ma’lum ma’nodagi barqarorlik mavjud. Bu haqda fikr bildirgan tadqiqotchilar toponimlarda turli o‘zgarish kam kuzatilishi, bu o‘zgarishlarning uzoq davrlar davom etishi, o‘zgarish ro‘y berganda ham asl, avvalgi nom xalq tilida uzoq muddat saqlanishi haqida ma’lumot beradilar.

Mang‘it. Mang‘it toponimi tumanning Qaroval mahalla fuqarolari yig‘ini hududida joylashgan. Bu toponim o‘zbek xalqi tarkibidagi eng qadimiy, yirik qabila, urug‘dan birining nomi, ya’ni etnonim hisoblanadi. Shu etnonim asosida toponimizatsiyasi orqali Mang‘it

toponimi yuzaga kelgan [8]. T.Nafasov mang‘itning oqmang‘it, qoramang‘it, cholmang‘it, boyg‘undamang‘it, to‘qmang‘it, o‘nikki, chalamang‘it kabi bo‘linmalari, temirxo‘ja, esaboy, esat, guvalak, ko‘sса, toz, qorabayir, baqirchi, chovqay, kulatamg‘ali, mang‘itqozoq, galabotir, beshkal, chobakchak, uz, uvolay kabi urug‘ tarmoqlari bo‘lganligi haqida ma’lumot bergen [5;160-162]. N.Begaliyev ham mang‘it haqida quyidagicha ma’lumot bergen: mang‘it – turkiy, mo‘g‘ul, tungus-manjur tillariga, ya’ni ularning o‘tmishdagi oltoy bobotiliga tegishli so‘z. Mo‘g‘ulcha shakli – “myangad”, ya’ni minglar demakdir [3; 63-65].

Tadqiqotchi N.Adizovaning ishida ham mang‘it haqida ma’lumot berib, ushbu etnonim O‘zbekistonning qariyb barcha tumanlarida uchrashini, mang‘it atamasi qishloq, ovul, guzar, shahar, tumanning atoqli nomi, ya’ni toponim sifatida qo‘llanishini. Shuningdek, G‘ijduvon tumanidagi qishloq nomi shu etnotoponim bilan atalishini ta‘kidlagan [1;43-44].

Aleli. Mazkur nom tumandagi mahalla fuqarolar yig‘ini hamda aholi punktini atash uchun qo‘llanadi. Ushbu toponim tarixan etnonim asosida shakllangan. Z.Do‘simov va X.Egamovlarning ma’lumotiga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Amudaryo tumanida Alili qishlog‘i bor. U turkmanlarning ali eli urug‘i bilan aloqador. Ali eli urug‘i vakillari Xiva xonining marhamati bilan Qilichniyozboy qal‘asi atrofidan yer olib, shu yerda yashay boshlaganlar. Ularning qishlog‘i Alili nomi bilan yuritilgan, qishloqqa boradigan ariq ham shu nom bilan atalgan. Hazorasp tumanidagi Aliulik toponimi ham ali elining shevada fonetik o‘zgarishga uchragan formasidir [4;12-13].

Demak, Aleli aholi punkti ali eli etnonimi vositasida shakllangan. Shuningdek, mazkur mahalla fuqarolar yig‘ini hududida Aleliche toponimi ham mavjud. Toponim Aleli va –cha kichraytirsh qo‘shimchasi vositasida yuzaga kelgan. Ma’nosi esa kichik Aleli qishlog‘i degan ma’noni anglatadi.

Arabxona. Ushbu toponim tumandagi Oromgoh mahalla fuqarolari yig‘ini hududida joylashgan. Bu toponim nafaqat Buxoro viloyati, balki O‘zbekistonning boshqa hududlarida ham uchraydi. Bu etnonim Arab, Arablar, Arabon, Arabho (Arabo), Yuqori(Quyi) Arab(lar, xona), Katta (Kichik) Arab(lar, xona) kabi shakllarda qo‘llanadi. Prof. T.Nafasov tadqiqotida arablar istiqomat qiladigan aholi punktlarida quyidagi tur arablar mavjudligini qayd etgan:

1) arab tilini bilmaydigan, qarluq lajhasida gaplashadigan arablar; 2) arab tilini biladigan, o‘zbekcha so‘zlashadigan, tojik tilini bilmaydigan arablar; 3) arab va tojik tilini bilmaydigan, o‘zbekcha so‘zlashadigan arablar; 4) arab tilini bilmaydigan, tojik va o‘zbek tillarida so‘zlashadigan arablar.

So‘nggi ikki tur arablar yashaydigan aholi punktlari Arabxona deb ataladi. Etnik tarkib joylarning nomlanishiga asos bo‘lgan.

Bo‘ribog‘i. Mazkur toponim tumandagi mahallalardan birini atash uchun qo‘llanadi. Bu toponimni ikki xil sharhlash mumkin: 1) Bo‘ri ismli kishi barpo etgan bog‘; 2) bo‘ri urg‘i vakillari bunyod etgan bog‘.

N.Oxunov o‘zbek va qирғизларнинг кичик бир urug‘и “bo‘ri” deb atalgани haqida ma’lumot bergen [6, B.13].

Xulosa qilib aytish mumkinki, kundalik turmush, ijtimoiy hayotda mavjud tushunchalar kabi toponimlar ham uzoq shakllanish va taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tadi. Davrlar o‘tishi bilan nomlarda ham turli o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bu o‘zgarishlarga bir qancha sabablar asos bo‘lishi mumkin. Lekin toponimika sohasi mutaxassislari, qolaversa, keng jamoatchilik oldida tarixiy nomlarni asrab-avaylash, ularni kelajak avlodlarga bekamu ko‘st yetkazish vazifasi doimo dolzarb bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. Adizova N.B. Buxoro tumani toponimlari. Monografiya. –Toshkent, Navro‘z, 2020. – B.25.
2. Аслонов А.С. Шоғиркон тумани микротопонимиясининг лингвистик таҳлили: филол. фан. ном. ... дисс. –Т., 2005.
3. Бегалиев Н. Ўзбек этнонимлари тарихидан. Самарқанд, 2005. –Б. 63-65.

- Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1977. –Б. 12-13.
- Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилоят қишлоқлари номининг тадқики. –Тошкент, 2009. –Б.90.
- Охунов Н. Жой номлари таъбири. –Тошкент, Ўзбекистон, 1994. –Б.13.
- Kilichev B.E., Safarova M.Z. Bukhara region's typical toponyms transformed by means the names of nations. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Philadelphia, USA. 2021 02 94.
- Kilichev B.E., Safarova M.Z. Toponyms Formed On The Basis Of Nation Names. International Journals of Sciences and High Technologies. Vol. 25 No. 1 February 2021, pp. 104-107.

**O'ZBEK ERTAKLARIDAGI ANTROPONIMLARINING LINGVOMADANIY
ASOSLARI**
DOI:10.53885/edinres.2021.29.92.026

Bayramali Kilichev

BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Sharofiddin Rahmatullayev

BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasi
o'qituvchisi

Annotatsiya. O'zbek onomastikasining asosiy birliklaridan sanalgan antroponimlarni etnolingvistik va etnomadaniy jihatdan motivlashish asoslarini xalq ertaklari materiallari misolida aniqlash, leksik-semantik tahlili va tadqiqini amalga oshirish maqsad qilingan. Dunyo tilshunosligining onomastika, antroponimika sohasi rivoji uchun juda zarur va dolzarb sanalgan bu masalalar yechimi lingvomadaniy birlklarning leksik-semantik xususiyatlarini, epik asarlar leksikasi tilning etnomadaniyat bilan bog'liqligini asoslashdan iborat.

Kalit so'zlar: ertak, antroponim, lingvomadaniyat

O'zbek ertaklari tilida antroponimlar semantikasiga oid tadqiqot ishi bugungi kunga qadar yaratilmagan. Ammo xalq dostonlari tili va badiiyati yuzasidan o'zbek tilshunosligida bir qator dissertatsion tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularda dostonlarning lug'aviy, leksik-semantik, funksional-uslubiy xususiyatlari, qiyosiy-tarixiy tahlili, poetik ko'chim va barqaror uslubiy formula kabilar maxsus o'rganilgan.

Har bir elat vakillari millat sifatida shakllanishi uchun juda uzoq va mashaqqatlari yo'lni bosib o'tishi barchaga ma'lum. Ana shunday uzoq tarixga ega bo'lgan millat o'zining urfodatlari va milliy an'analariga egaligi uning boshqa millat vakillaridan farqlovchi muhim belgisidir. Shu o'rinda aytish joizki, har bir millatning ravnaq topishida xalq madaniyati, tili, adabiyoti, tarixi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, til – ijtimoiy hodisa. U aloqa vositasi. Tilsiz hech bir jamiyat hozirgidek rivojiana olmas edi. Shu jihatdan til madaniyat bilan uzviy bog'liqdir. Hozirda barcha xalqlarning, avvalo, o'zaro muomala madaniyati, iqtisodiy-siyosiy, ilmiy-madaniy aloqalari, qolaversa, xalqaro ahamiyatdagi munosabatlari til va madaniyatining uyg'un holda aks etishi barcha xalqlarga xos bo'lgan xususiyatlardan biridir.

Ism inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'zbek xalqida ismlarning o'rni va mohiyati boshqa xalqlarda bo'lgani kabi ancha chuqur ildizga egadir. Qadim-qadimdan ota-bobolarimiz farzandlariga ism qo'yishar ekan, kelajakda uning baxt-u kamoli mana shu ismiga ham bog'liq, degan qarashlarga ishonishgan. Hattoki, chaqaloqqa ism qo'yish uchun yoshi katta, hayot tajribasiga ega bo'lgan nuroniyalar boshchiligidagi maxsus marosimlar ham o'tkazilgan. Bunday marosimlar hozirgi kunda ham davom etib kelmoqda. Bu xalq tilida "aqiqa" deb nomlanadi.


"Aqiqa" yoki "aqiyqa" so'zi lug'atlarda "yordi" ma'nosini anglatishi aytilgan. Bu so'z aslida yangi tug'ilgan bolaning sochiga nisbatan qo'llanilgan. Islom shariati ta'limotlariga

| | |
|---|-----|
| Atoullo Rakhmatovich Akhmedov, Sevara Mahmud qizi Po'latova. Arealogiya tushunchasi haqida | 100 |
| Odiljon Bozorov. Til nazariyasini shakllantirish va boyitishda falsafiy kategoriylar metodologiyasi | 102 |
| Nodira O'tkir qizi Boltayeva. Tabassum kommunikativ-emotsional aloqa vositasi sifatida | 105 |
| Nazora Jo'rayevna Bekova, Zarina Raxmuddinovna Sayliyeva, Feruza Sohib qizi Saidova. "G'aroyib us-sig'ar" devoni tarkibidagi bir g'azal tahlili | 108 |
| Nazora Bekova, Shahlo Halimova. Navoiyning "Navodir ush-shabob" devoni nashrlaridagi tarje'bandlarning matniy tafovutlari va ularning g'oyaviy-badiiy tahlili | 110 |
| Дилдора Бўронова. Инкорнинг лингвофалсафий, лингвомантиқий, прагматик табиати ҳақида мулоҳазалар..... | 112 |
| Шоҳсанам Давронова. Қиссада бадий далиллашнинг ўрни | 114 |
| Nafisa Izzatullaevna G'aybullaeva. Evfemizmning nutqdag'i ijtimoiy ahamiyati | 117 |
| Орзигул Хайриддиновна Ганиева, Феруз Бахтиёрович Садуллаев. "Муқаддас" қиссасининг бадий хусусиятлари | 118 |
| Шахноза Каҳрамоновна Гулямова. Кўп маъноли сўзлар қуршовини лингвистик моделлаштириш | 122 |
| Maqsuda Baqoyevna Ikromova. Xorijiy tillarni o'rgatishda va o'rganishda zamonaviy metodlar va texnologiyalarning o'rni | 124 |
| Аъзамжон Авазжон ўғли Ихтиёров. Субъектив муносабат семантикасининг фраземалар парадигмаларини шакллантириши хусусида | 126 |
| Турсунали Жумаев. Морфологик тарихий қолдиқларда вариантлашув | 129 |
| Шахло Шокировна Жумаева. Milliy kolorit ва uning xususiyati..... | 132 |
| Nazokat Zaripboyeva. Milliy til korpusining paydo bo'lishi va taraqqiyoti..... | 134 |
| Nazokat Zaripboyeva. O'zbek tilining milliy korpusini yaratish mezonlari | 138 |
| Ихтиёр Нигматуллаевич Камолов. Тилшунослик ва адабиётшуносликда биографик ёндашувнинг долзарбилиги..... | 142 |
| Bayramali Kilichev, Intizora Axmatova. Ayrim toponimlarning tarkibi va semantikasi haqida | 145 |
| Bayramali Kilichev, Sharofiddin Rahmatullayev. O'zbek ertaklaridagi antroponomalarining lingvomadaniy asoslari | 148 |
| Дилрабо Қувватова, Раҳима Шарипова. Rayf Парфи шеъриятида шамол рамз сифатида | 151 |
| Umidjon Yigitaliyev. "Shaxs" lisoniy zarrasining fonetik-fonologik tizimda voqelanishi | 154 |
| Shahnoza Yusufovna Yoqubova. Obyektlı birikmalarning formal grammatick tavsifi xususida | 155 |
| Фармонов Б.Б. Рельефонимларнинг инглиз тилида семантик тузилиши..... | 158 |
| Khamdamova Sitora Bakhshilloyevna. William Butler yeats' myth-making features | 160 |
| Нафиса Низомиддиновна Ҳамроева. Илтифот ва унинг метакоммуникатив вазифалари | 163 |
| Ильхомжон Собирович Мадрахимов. Проблемы языковых единиц – одна из узловых проблем теоретического языкоznания | 165 |
| Шоҳиста Тухташевна Махмараимова. Лугавий бирликлар ўртасидаги эпидигматик муносабат | 169 |
| Сиддиқжон Мўминов, Табассумхон Мўминова. Xurшид Дўстмуҳаммаднинг "Ёлғиз" қиссасида бадий нутқ ва услубнинг ўзига хослиги | 173 |
| Mahbuba Muhammadova. Humoyun Mirzo Nisoriy talqinida..... | 176 |
| Дилфуза Сайтовна Нарзуллаева. Xalқimiznинг момо культига алоқадор мифологик қарашлари | 179 |
| Saida Axmedjanovna Nazarova, Maxfirat Yusupovna Xojiyeva. Lisoniy sintaktik birliklarning tibbiy nutqda voqelanishi | 183 |
| Ниязова Г. Детектив асарлар тилининг прагматик хусусиятларини таҳлил қилиш | 186 |
| Munavvar Sultonovna Olimova. Ona tilim – millatim ruhi..... | 188 |
| Зарина Олимова. Гулистон Матёқубова ижодида ташхиснинг ўрни | 190 |
| Ситорабону Уринова. Отличия и отличия рассказа издания "рабгузий" от его преобразований в рассказе "строительство и завершение каабы" | 193 |

Filologik tadqiqotlar: muammo va yechim

Anjumanning maqsadi: filologiya fanlari doktori, professor Hamid G'ulomovich Ne'matov tavalludining 80 yilligini keng nishonlash va o'zbek tilshunosligi XXI asr birinchi choragida, filologiyada o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalar, til ta'llimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'zbek va xorijiy tillarni qiyosly o'rGANISH masalalarini ta'llimning yetakchi mutaxassislar bilan tajriba almashish hamda ushbu sohadagi so'nngi tadqiqot usullarini ommalashtirishdan iborat.

Toirova Guli Ibragimovna- BuxDU O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.



Globe
edit